

Ufqlarni kengaytirib, hamkorlikni mustahkamlaymiz: Uzbekistan Airways Fukuokada qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rmqda!

2026 11 Sentabr

Uzbekistan Airways delegatsiyasi Fukuoka oroli xalqaro aeroporti rahbariyati bilan samarali uchrashuv o'tkazdi. Strategik muloqotning asosiy mavzusi ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish va 2026-yil kuz-qish navigatsiyasi davrida havo bandargohini parvozlarimizga xizmat ko'rsatishga kompleks tayyorlash bo'ldi.

Milliy aviatashuvchi 2022-yildan buyon ushbu mashhur kurort oroliga parvozlarni muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Sayohatchilarning yo'nalishga bo'lgan doimiy yuqori qiziqishiga javoban, noyabr oyidan boshlab biz parvozlar chastotasini oshirmoqdamiz: Fukuokaga parvozlar haftasiga ikki marta amalga oshiriladi.

Ushbu yo'nalishning tanlanishi va rivojlantirilishi aeroportning o'zida kuzatilayotgan ajoyib dinamika bilan mustahkamlanadi. Birgina joriy yilning dastlabki sakkiz oyida Fukuok 5,4 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, yil oxiriga kelib rekord ko'rsatkich – 8 millionga yetishi kutilmoqda. O'sib borayotgan talab va jahon standartlariga javob berish uchun havo bandargohi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqda – Terminal-2, yangi uchish-qo'nish yo'lagi va zamonaviy VIP-terminal qurilishi jadal davom etmoqda.

Bunday jadal rivojlanayotgan hamkorlar bilan hamkorlik Uzbekistan Airways yo'lovchilariga sayohatning har bir bosqichida eng yuqori darajadagi qulaylik, xizmat va xavfsizlikni kafolatlash imkonini beradi.

Ishonchli aviatsiya ko'priklarini qurishda davom etamiz va yorqin qish mavsumiga birgalikda tayyorgarlik ko'ramiz!